| Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari..... | 1038 |
| Z. Abdikarimova, S. Madaminov | |
| Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг | 1042 |
| Каримова Азиза Махомадризoeвна, Розоков Мухаммадазиз Мансурович | |
| Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznesning amaliy ahamiyati..... | 1047 |
| Mamajanova Gulbaxor Toxirjon qizi, Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li | |
| Milliy innovatsion tizimning shakllanishida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanish prinsiplari... | 1052 |
| Nishonov Dilshod Shamsiddinovich | |
| Oliy ta'limda o'quv jarayonini samaradorligini oshirishda multimedya texnologiyalaridan foydalanish..... | 1058 |
| Saydullayeva Saodat Abdumajidovna | |
| Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda mikromoliyalash-tirishning xususiyatlari | 1063 |
| Tojiyev Javlonbek Rustamovich | |
| O'zbekiston Respublikasi fiskal siyosatining siklik xususiyatini aniqlash masalalari | 1067 |
| Sheraliev Javoxirbek Jaxongir o'g'li | |
| Управление хозяйственной деятельностью торговых предприятий..... | 1073 |
| Юлдашева Гульмира Азатовна, Зияев Дилшоджон | |



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FISKAL SIYOSATINING SIKLIK XUSUSIYATINI ANIQLASH MASALALARI



Sheraliev Javoxirbek Jaxongir o'g'li

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruvi va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi fiskal siyosatining iqtisodiy sikl bilan bog'liqlik xususiyat, Philipp Heimberger metodologiya asosida aniqlangan. Shuningdek, maqolada iqtisodiy siklning mohiyati, siklik xususiyatiga ko'ra fiskal siyosatning turlari hamda fiskal siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati hamda iqtisodiy o'sish, davlat byudjeti daromadlari, xarajatlari va saldosining dinamik tahlillari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy sikl, fiskal siyosat, protsiklik fiskal siyosat, kontrtsiklik fiskal siyosat, iqtisodiy o'sish, davlat byudjeti xarajatlari, byudjet deficitsi.

Abstract: In this article, the nature of the fiscal policy of the Republic of Uzbekistan in relation to the economic cycle is determined on the basis of the methodology of Philipp Heimberger. The article also cites the nature of the economic cycle, the types of fiscal policy by the cyclical nature, and the importance of fiscal policy in ensuring macroeconomic stability, and dynamic analysis of economic growth, government budget revenues, expenditures, and budget balance.

Key words: Economic cycle, fiscal policy, procyclical fiscal policy, countercyclical fiscal policy, economic growth, state budget expenditures, budget deficit.

Аннотация: В данной статье определяется связь между фискальной политикой Республики Узбекистан и экономическим циклом на основе методологии Филиппа Хаймбергера. В статье упоминаются характер экономического цикла, виды фискальной политики в зависимости от ее цикличности и значение фискальной политики в обеспечении макроэкономической стабильности, а также динамический анализ экономического роста, доходов, расходов и балансов государственного бюджета.

Ключевые слова: Экономический цикл, фискальная политика, проциклическая фискальная политика, контрциклическая фискальная политика, экономический рост, расходы государственного бюджета, бюджетный дефицит.

KIRISH

Fiskal siyosatning maqsadlaridan biri mamlakatning makroiqtisodiy muhitni barqarorlashtirish hisoblan-sada, ko'pgina mamlakatlar, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar o'tgan yillar davomida odatda protsiklik fiskal siyosat yuritishgan¹. ekin dastlab proциклик фискал сиёсат ялпи талабни рағбатлантириб, иқтисодий фаолликни ошириш учун фойдали, деб ҳисобланилган бўлса-да, иқтисодий пасайиш даврида унинг салбий оқибатлари яққол кўзга ташланиб қолган. Шунинг учун кўплаб мамлакатлар сўнгги 10 йилликларда проциклик фискал сиёсатдан контрциклик фискал сиёсат юритишга ўта бошлишган. Масалан, 1960–1999-йиллар оралиғида 94 та, жумладан, 21 та ривожланган ва 73 та ривожланётган мамлакатлар учун олиб борилган тадқиқотлар² shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarning 90 foizidan ortig'i protsiklik fiskal siyosat yuritgan bo'lsa, rivojlangan mamlakatlarning deyarli 80 foizi kontrtsiklik fiskal siyosat olib borgan. 2000–2009-yillar oraliqida esa rivojlanayotgan mamlakatlar o'tasida ham kontrtsiklik fiskal siyosat yuritish sur'ati keskin oshdi. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarning 35 foizi yoki 73 tadan 26 tasi kontrtsiklik fiskal siyosatga o'tishgan. Bu esa 1960–1999-yillarga nisbatan 4 barobar ko'p demakdir³.

1 Antonio Fatás and Llian Mihov "The Euro and Fiscal Policy", The University of Chicago Press, February 2010, 287- 324p.

2 Kaminsky, Graciela, Carmen Reinhart, and Carlos Végh (2005), "When It Rains, It Pours: Procyclical Capital Flows and Macroeconomic Policies", NBER Macroeconomics Annual 2004, 19:11-82.

3 Frankel, Jeffrey A., Carlos A. Vegh, and Guillermo Vuletin. "Fiscal Policy in Developing Countries: Escape from Procyclicality." VoxEU, June 23, 2011.



Iqtisodiy siklni muvozanatda ushlab turuvchi ustun, ya'ni iqtisodiy jarayonlar tezlashganda mo'tadillashtiruvchi, pasayganda esa rag'batlantiruvchi, bir so'z bilan aytganda, barqarorlashtuvchi siyosat fiskal siyosat hisoblanadi. Fiskal siyosat soliqlar va davlat xarajatlari yo'naliishlarini o'zgartirish orqali iqtisodiy sikel chastotasiiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bundan tashqari, fiskal siyosat pul-kredit siyosati bilan muvofiqlikda olib borilganda inflyatsiyani barqarorlashtirish maqsadlariga erishishni osonlashtirishi, moliyaviy barqarorlik uchun xavflarni kamaytirishga yordam berishi mumkin⁴.

Iqtisodiy nazariyada siklik xususiyatiga ko'ra fiskal siyosatning ikki turi ajratiladi: bular – kontrtsiklik fiskal siyosat; protsiklik fiskal siyosat.

Kontrtsiklik fiskal siyosat - iqtisodiyotni davriy tebranishiga teskari olib boriladigan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga qamrab oladi. Ya'ni iqtisodiy rivojlanish davrida hukumat yalpi talabni qisqartirish maqsadida davlat xarajatlarini kamaytirishga va/yoki soliqlarni oshirishga intiladi. Aksincha, iqtisodiy pasayish davrida esa davlat xarajatlarini oshirish va/yoki soliqlar kamaytirish orqali yalpi talabni rag'batlantirishi mumkin. Bu orqali hukumat iqtisodiy inqiroz davrida turli kutilmagan risklarni oldini olishga va iqtisodiy tebranishlar chastotasini kamaytirishga xarakat qiladi. Ya'ni kontrtsiklik fiskal siyosat iqtisodiy pasayish davrida iqtisodiy tebranishlarni kamaytiradi va makrofiskal barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Protsiklik fiskal siyosat esa iqtisodiy sikel tebranishiga muvofiq olib boriladigan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi. Ya'ni, hukumat iqtisodiy yuksalish davrida yalpi talabni oshirish uchun davlat xarajatlarini oshirishga va/yoki soliqlarni kamaytirishga, iqtisodiy pasayish davrida esa yalpi talabni qisqartirish uchun xarajatlarini kamaytirishga va/yoki soliqlarni oshirishga urinadi. Bu esa, makroiqtisodiy muvozanatga jiddiy ta'sir ko'rsatishi, ya'ni makroiqtisodiy o'zgaruvchanlikni oshirishi, real sektor va inson kapitaliga investitsiyalarni kamaytirishi, iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilishi va axoli daromadlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Masalan, koronavirus pandemiyasi davrida korxonalar va aholini qo'llab-quvvatlash uchun hukumatning yordami juda zarur edi, lekin shu bilan birga, yalpi talab yalpi taklifga nisbatan yuqori sur'atda oshmasligini ta'minlash, ya'ni inflyatsiyani oldini olish ham dolzarb vazifa hisoblanardi. Shuning uchun protsiklik fiskal siyosatning yuritilishi o'rta muddatli davrda inflyatsiyaning oshishiga, axoli real daromadlarini kamayishiga va natijada iqtisodiy o'sishning pasayishiga olib kelish xavfini kuchaytirishi mumkin. Bu esa kelajakda ichki va tashqi shoklarga nisbatan iqtisodiyotni zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Umuman fiskal siyosatni siklik xususiyati ko'p yillardan beri olimlar e'tibor markazida bo'lib kelgan. Keyschilik nazariyasiga ko'ra, fiskal organlar ishlab chiqarish tebranishlarini barqarorlashtirish uchun kengayish davrida qisqaruvchi va pasayish davrida kengayuvchi kontrtsiklik fiskal siyosatni olib borishi kerak. Bundan farqli o'laroq, neoklassik nazariyaga ko'ra, fiskal siyosat iqtisodiy buzilishlarni minimallashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak va shuning uchun iqtisodiy sikel davomida neytral bo'lishi kerak deyiladi. Demak, agar fiskal organlar Keyns ko'rsatmalariga amal qilgan bo'lsa, iqtisodiy sikel davomida davlat xarajatlari va ishlab chiqarish o'rta sidagi salbiy korrelyatsiyani, soliq stavkalari va ishlab chiqarish o'rta sidagi ijobjiy korrelyatsiyani ta'minlashga xarakat qilishi lozim. Aksincha, fiskal siyosat neoklassik tamoyillarga muvofiq belgilansa, ular o'rta sidagi korrelyatsiyalar mohiyatan nolga teng bo'lishi lozim⁵.

Ko'pgina empirik tadqiqotlar rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal siyosat ko'proq protsiklik bo'ladi degan xulosaga keladi. Masalan, Perotti va Gavin⁶ Lotin Amerikasida fiskal siyosat juda protsiklik deb topishgan bo'lsa, Kaminsky va boshqa olimlar fiskal siyosat rivojlangan mamlakatlarga qaraganda odatda rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'proq protsiklik ekanligini ko'rsatadi⁷. So'nggi o'n yil ichida rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal institutlar sifati ortishi fonida protsiklik fiskal siyosat yuritishga moyillik kamaygan.

Bundan tashqari, Alberto Alesina va Guido Tabellini⁸ iqtisodiy rivojlanish davrida avtomatik stabilizatorlar tufayli davlat xarajatlarining YalMga nisbatan ulushi kamayishi, davlat byudjeti daromadlarining ulushi esa ortib borishi kerak bo'ladi, natijada YalMga nisbatan byudjet profitsiti ortadi, ya'ni kontrtsiklik fiskal siyosat yuritishi kerak degan xulosaga kelishgan, lekin amalda ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarning fiskal siyosati protsiklik xususiyatga ega ekanligini ta'kidlashadi. Ya'ni ularning o'tkazgan tahvililariga ko'ra, rivojlanayotgan

4 Tobias Adrian, Vitor Gaspar "How Fiscal Restraint Can Help Fight Inflation", IMF blog, 21 june, 2022. - <https://www.imf.org/ru/Blogs/Articles/2022/11/21/how-fiscal-restraint-can-help-fight-inflation>

5 A.Ahmad, R.McManus, F.G.Ozkan, (2021) "Fiscal space and the procyclicality of fiscal policy: The case for making hay while the sun shines". Economic Inquiry, 59(4), 1687–1701.

6 Michael Gavin, Roberto Perotti, "Fiscal Policy in Latin America", MIT Press, January 1997, p. 11 – 72.

7 Kaminsky, Graciela, Carmen Reinhart, and Carlos Végh (2005), "When It Rains, It Pours: Procyclical Capital Flows and Macroeconomic Policies", NBER Macroeconomics Annual 2004, 19:11-82.

8 Alesina, Alberto, Guido Tabellini, and Filipe R. Campante. "Why Is Fiscal Policy Often Procyclical?" Journal of the European Economic Association 6, no. 5 (2008): 1006–36. <http://www.jstor.org/stable/40283091>.



mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish davrida davlat xarajatlarining YalMdagi ulushi va unga mutanosib ravishda byudjet defitsiti oshgan, turg'unlik davrida ikki ko'rsatkich ham pasaygan⁹.

Jose Luis Diaz Sanchez, Joana Monteiro Da Mota ham o'z izlanishlarida rivojlangan mamlakatlarda byudjet siyosati kontrtsiklik bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda u odatda protsiklik bo'ladi degan xulosaga kelishgan¹⁰. Yevropa Valyuta Ittifoqi tomonidan tuzilgan "Maastricht shartnomasi, Barqarorlik va O'sish pakti" shartnomasiga rioya qilishlari uchun ittifoq tarkibidagi hukumatlar kontrtsiklik fiskal siyosat olib borishlari hamda ishlab chiqarish tebranishlariga qarshi nosimmetrik tarzda munosabat bildirishlari, ya'ni siyosatchilar turg'unlik davrida restriktion fiskal siyosatdan qochishlari va iqtisodiy yuksalish davrida byudjet tizimini kontsolidatsiyalashga xarakat qilishlari lozim bo'lgan. Lekin, xatto yuqori darajada sanoatlashgan mamlakatlarda ham davlat moliyasining ba'zi tarkibiy qismlari iqtisodiy siklga mos ravishda kengaygan¹¹.

Philipp Heimberger ham fiskal siyosat turli mamlakatlarda iqtisodiy tebranishlarni kuchaytirishi yoki kuchaytirmasligi haqida ko'plab izlanishlar qisman qarama-qarshi xulosalar berganligini ta'kidlaydi. Ilg'or rivojlangan mamlakatlarning o'rtacha hisobda soliq-byudjet siyosati kontrtsiklik hisoblanadi, lekin rivojlanayotgan mamlakatlardan protsiklik fiskal siyosatga moyil deb hisoblaydi¹².

Asif Ahmad, Richard McManus, F. Gulcin Ozkan past va o'rta daromadli mamlakatlarda protsiklik fiskal siyosat kamayganini, yuqori daromadli mamlakatlarda esa global moliyaviy inqiroz davridan keyin fiskal protsiklik ortganini aniqlashgan¹³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rivojlanayotgan hamda faol ravishda qarz jalb qilayotgan mamlakat sifatida O'zbekiston Respublikasi fiskal siyosatining siklik xususiyatiga ko'ra, qaysi toifaga mansub ekanligini aniqlash muhim hisoblanadi. Bunga asosiy sabab fiskal siyosatning siklik xususiyati iqtisodiy sikl bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ular o'rtasida o'zaro to'g'ri yoki teskari bog'liqqa ega, ya'ni fiskal siyosat protsiklik yoki kontrtsiklik xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, tashqi risklarga iqtisodiyotni chidamliligini oshirish uchun esa kontrtsiklik fiskal siyosat yuritish talab qilinishi zarur.

Fiskal siyosatning siklik xususiyatini aniqlash bo'yicha Philipp Heimberger qo'llagan metodologiyadan foydalanamiz. Olim amalga oshirgan meta-regression tahlilda ijobji regressiya koeffitsienti fiskal siyosatni protsiklik ekanligini, salbiy regressiya koeffitsienti esa kontrtsiklik ekanligini anglatadi. Ya'ni agar davlat xarajatlarining YalMga yoki uning o'sish sur'atiga regression bog'liqligi ijobjiy bo'lsa, mamlakatda protsiklik xususiyatga ega bo'lgan fiskal siyosat va agar koeffitsient salbiy bo'lsa, kontrtsiklik fiskal siyosat yuritilayotgan bo'ladi. O'rganilgan adabiyotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, fiskal siyosat va ishlab chiqarish sikli o'tasidagi bog'liqliknini aniqlash uchun turli xil ko'rsatkichlardan foydalanilgan. Masalan, Philipp Heimberger fiskal siyosat o'zgaruvchisi sifatida real davlat iste'mol xarajatlari, davlat byudjeti taqchilligi, soliq tushumining YalMga nisbati kabi ko'rsatkichlarni olgan bo'lsa, ishlab chiqarishning siklik o'zgaruvchisi sifatida real YalM hajmi, uning real o'sish sur'ati, YalM uzilishi (output gap) kabilalar modelga o'zgaruvchi tariqasida kiritilishi mumkinligini ta'kidlagan.

Philipp Heimberger ilgari surgan fiskal siyosatning siklikligini ekonometrik modellashtirish formulasi quydagidan iborat¹⁴:

$$FP = \alpha_0 + \alpha_1 CYCLE + \alpha_2 X + \epsilon \quad (1)$$

Bu yerda,

FP – fiskal siyosat o'zgaruvchisi;

CYCLE – ishlab chiqarish sikllik o'zgaruvchisi;

X – qo'shimcha nazorat o'zgaruvchilarni (omillar) o'z ichiga oladi;

ϵ – standart xatolik.

Ushbu modelga asosan biz davlat xarajatlari (bog'liq o'zgaruvchi) va iqtisodiy o'sish sur'ati (mustaqil o'zgaruvchi) o'tasidagi bog'liqliknini aniqlashga xarakat qildik. Qolgan o'zgaruvchilar modelga instrumental o'zgaruvchilar sifatida kiritilgan.

9 Alberto Alesina and Guido Tabellini, "Why is fiscal policy often procyclical?", Harvard University and IGIER Bocconi, February 2006, 41 pages.

10 Jose Luis Diaz Sanchez, Joana Monteiro Da Mota, "How Procyclical Has Fiscal Policy Been in CEMAC?" Published on Africa Can End Poverty, June 22, 2022.

11 Mark Hallerberg, Rolf Strauch "On the Cyclicity of Public Finances in Europe", Empirica 29: 183–207p, 2002.

12 Philipp Heimberger, "The cyclical behaviour of fiscal policy: A meta-analysis". Vienna Institute for International Economic Studies, Austria. Economic Modelling 123 (2023) 106259.

13 A.Ahmad, R.McManus, F.G.Ozkan, (2021) "Fiscal space and the procyclicality of fiscal policy: The case for making hay while the sun shines". Economic Inquiry, 59(4), 1687–1701. Available from: <https://doi.org/10.1111/ecin.130081700>.

14 Philipp Heimberger, "The cyclical behaviour of fiscal policy: A meta-analysis". Vienna Institute for International Economic Studies, Austria. Economic Modelling 123 (2023) 106259.



1-jadval: Modelda olingan o'zgaruvchilarning umumiyl tavsifi

| Variable | Obs | Mean | Std.dev. | Min | Max |
|--------------|-----|----------|-----------|----------|----------|
| In_rgexp2010 | 12 | 10.00116 | 0.4168944 | 9.306247 | 10.66377 |
| In_rgdp2010 | 12 | 11.6866 | 0.2047184 | 11.34896 | 11.98637 |

Tadqiqot metodologiyasiga ko'ra, ushbu tahlilda 2010–2022-yillar kuzatuv davri sifatida olingan. Model o'zgaruvchilarining barchasi bir xil vaznga ega bo'lib, kuzatuv davri davomida ularning 2010-yilgi narxlardagi real xajmlaridan foydalanilgan (1-jadval). Barcha ta'sir etuvchi omillarning statsionarligi aniqlash uchun birlik ildiz testidan (Augmented Dickey-Fuller unit root test) hamda ma'lumotlarning normal taqsimoti (Shapiro-Francia test) testidan o'tkazilgan. Modeldag'i barcha ko'rsatkichlar statsionar va normal taqsimlangan. Shuningdek, modeldag'i qoldiqlarning normal taqsimotini aniqlab beruvchi "heteroscedasticity" testidan o'tkazilgan va olingan natijalar qoldiqlar normal taqsimlanganini ko'rsatmoqda. Aniqlangan modellarda avtokorrelatsiya mavjud emas, uni aniqlashda esa broysh-godfrey testidan foydalanilgan. Olingan natijalar ishonchli ekanligini newey-west testi orqali aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korrelatsion tahlil natijalariga e'tibor beradigan bo'lsak, davlat xarajatlari va iqtisodiy o'sish sur'ati o'rtaida ijobji (0.9568) bog'liqlik mavjud. Bu esa mamlakatimizda oxirgi yillarda protsiklik fiskal siyosat olib borilayotganidan dalolat beradi (2-jadval).

2-jadval: Korrelatsion tahlil natijalari

| | rgexp2010 | rgdp2010 |
|-----------|-----------|----------|
| rgexp2010 | 1.0000 | |
| rgdp2010 | 0.9568 | 1.0000 |

Regression tahlil natijalariga ko'ra, davlat xarajatlari va iqtisodiy o'sish o'rtaida ham ijobji bog'lig'lik mavjud. Masalan, bir omilli regression tahlilda iqtisodiy o'sish sur'atini 1 foizga o'sishi davlat xarajatlarini ham 1,96 foizga o'sishiga olib keladi. Bu esa iqtisodiy kengayish davrida davlat xarajatlarining o'sishini anglatib, mamlakatimizda protsiklik fiskal siyosat olib borilayotganidan dalolat beradi. Oxirgi yillardagi byudjet balansining salbiyligi, davlat qarzining YalMga nisbatan keskin o'sishi buning yaqqol alomatlaridan hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval: Philipp Heimberger modeli asosida olingan regression tahlil natijalari¹⁵

| Source | SS | df | MS | Number of obs | = | 12 |
|----------|------------|----|-------------|---------------|---|---------|
| Model | 1.7855571 | 1 | 1.7855571 | F(4, 16) | = | 141.43 |
| Residual | 0.12625281 | 10 | 0.012625281 | Prob > F | = | 0.0000 |
| Total | 1.91180991 | 11 | 0.173800901 | R-squared | = | 0.9340 |
| | | | | Adj R-squared | = | 0.9274 |
| | | | | Root MSE | = | 0.11236 |


| In_rgexp2010 | Coef. | Std. Err. | t | P> t | [95% Conf. Interval] |
|--------------|-----------|-----------|-------|-------|----------------------|
| In_rgdp2010 | 1.968038 | 0.1654883 | 11.89 | 0.000 | 1.599308 2.336769 |
| cons. | -12.99852 | 1.934267 | -6.72 | 0.000 | -17.30833 -8.688701 |

¹⁵ Stata 17© dasturi asosida mualif tomonidan hisoblangan.



Shuning uchun mamlakatimizda iqtisodiy kengayish davrida protsiklik siyosatning salbiy ta'sirlarini oldini olish uchun fiskal qoidalarni kengroq joriy etish hamda fiskal intizomni kuchaytirish zarur. Shuningdek, keyingi yillarda makroiqtisodiy, jumladan, fiskal barqarorlikni ta'minlash maqsadida kontrtsiklik fiskal siyosat yuritish lozim bo'ladi.

Umuman olganda, mamlakatimizda so'nggi 2000-yildan keyingi davrlarda yalpi ichki mahsulot hajmi yuqori sur'atlarda o'sdi. Masalan, 2000–2019-yillar orlag'iда iqtisodiy o'sish sur'ati deyarli 4 foizlik sur'atdan pastga tushmadi. Faqatgina, 2020-yilda karantin chekllovlar qo'yilishi iqtisodiyotning barcha sohalariga salbiy ta'sir etishi natijasida iqtisodiy o'sish sur'ati sekinlashdi, lekin iqtisodiy pasayish holati kuzatilmadi va natijada O'zbekiston Respublikasi dunyoda kam davlatlar erishgan iqtisodiy o'sish sur'atiga erisha oldi (1,99 foiz). 2021–2023-yillarda iqtisodiy o'sish sur'ati yana tezlashib, o'zining barqaror holatiga qaytib, mos ravishda 107,4, 105,7 va 106,0 foizni tashkil etdi. Ko'rinib turibdiki, oxirgi yillarda ham mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan kengayish davrini boshdan kechirdi, lekin ayni shu davrda davlat va xususiy qarz mablag'larini jalb qilish tendensiyasi jadallahшиб, davlat xarajatlari yildan yilga ortib bordi.




1-rasm: 2000–2022-yillarda O'zbekiston Respublikasi YaIM hajmi (mlrd.so'mda) va iqtisodiy o'sish sur'ati dinamikasi (foizda)¹⁶

Masalan, so'nggi yillarda davlat budjeti daromadlari (maqsadli jamg'armalarsiz) o'sish tendensiyasiga ega. Masalan, 2011–2016-yillar oralig'iда davlat budjeti daromadlari 3 barobarga oshgan (17061,3 mlrd.so'mdan 41043,4 mlrd.so'mgacha) bo'lsa, 2017–2023-yillar davomida deyarli 5 barobarga (49681 mlrd.so'mdan 232607 mlrd.so'mgacha) ko'paygan. Ya'ni 2017–2022-yillarda 2011–2016-yilga nisbatan davlat budjeti daromadlarning o'sish sur'ati 1,63 barobarga tezlashgan bo'lib, eng yuqori yillik o'sish sur'atlari 2018 va 2019-yillarga - mos ravishda 159,2 foiz va 141,8 foiz - to'g'ri kelgan. Shuningdek, davlat budjeti xarajatlari ham budget daromadlariga mos ravishda o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Masalan, 2011–2016 yillarda budget xarajatlari 3 barobardan ko'proqqa (13386,9 mlrd.so'mdan 40911,3 mlrd.so'mgacha) ortgan bo'lsa, 2017–2023-yillar davomida 5,7 martaga o'sgan. Bu ikki davr o'rtaqidagi xarajatlар o'sish sur'atini deyarli 2 barobar tezlashgani anglatadi. So'nggi yillarda budget xarajatlarining eng yuqori o'sish sur'ati xuddi budget daromadlari singari 2018–2019-yilarga to'g'ri kelib, mos ravishda 161,6 va 148,0 foizni tashkil etgan.

Natijada, 2011–2017-yillarda davlat budjeti (davlat maqsadli jamg'armalarsiz) saldoси kamayib boruvchi protsitsit bilan, 2018–2022-yillarda oshib boruvchi defitsit holatida yakunlandi. 2018–2023-yillarda esa YaIMga nisbatan budget taqchilligida -0,1 foizdan -4,6 foizgacha kengayish qayd etilgan. Bu esa mamlakatimiz fiskal siyosatida protsiklik xususiyatlari shakllanayotganligini ko'rsatmoqda (2-rasm).

16 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi – www.stat.uz.



2-rasm: 2011-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti daromadlari, xarajatlari va saldozi dinamikasi¹⁷

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuningdek, yuqori iqtisodiy o'sish bo'lgan yillarda davlat budgeti defitsit holatida ijro etilishi ham mamlakatda protsiklik fiskal siyosat yuritilayotganligidan dalolat beradi. Umuman olganda, budgetning me'yordan ortiqcha defitsit bilan ijro etilishi davlat qarzining YAIMga nisbatan ulushini ham oshishiga olib kelishi mumkin. Chunki mamlakatimizda har yili qabul qilinadigan "O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti to'g'risida"gi qonunga ko'ra, davlat budgeti defitsitini davlat qarzi hisobiga moliyalashiriladi, bu esa davlat qarzini oshishini anglatadi. Agar davlat qarzi YAIMga nisbatan oshsa, moliyaviy barqarorlik buziladi. Masalan, jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, keyinchalik koronavirus pandemiyasi davrida vujudga kelgan iqtisodiy inqiroz qarzdor iqtisodiyotlarning zaif tomonlarini, iqtisodiy tanazzul, real foiz stavkalarining oshishi va moliya tizimidagi qiyinchiliklar sharoitida davlat qarzi darajasini nazorat qilish nihoyatda qiyinligini ko'rsatdi. Ilgari qarzdorlik uchun barqaror deb hisoblangan qarzdorlik darajalari endilikda haddan tashqari yuqori deb qabul qilinmoqda va jiddiy to'lov qobiliyati muammolarini keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham davlat budgetini qoplashda ichki imkoniyatlardan optimal foydalanish hamda davlat budgeti defitsiti miqdorini ham kamaytirish, bir so'z bilan aytganda, kontrsiklik fiskal siyosat amaliyotiga qaytish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa bizga moliyaviy xavfsizlikni taqdim etadi, natijada makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turish imkoniyati oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jose Luis Diaz Sanchez, Joana Monteiro Da Mota, "How Procylical Has Fiscal Policy Been in CEMAC?" Published on Africa Can End Poverty, June 22, 2022.
2. Antonio Fatás and Ilian Mihov "The Euro and Fiscal Policy", The University of Chicago Press, February 2010, 287- 324p.
3. Kaminsky, Graciela, Carmen Reinhart, and Carlos Végh (2005), "When It Rains, It Pours: Procylical Capital Flows and Macroeconomic Policies", NBER Macroeconomics Annual 2004, 19:11-82.
4. Frankel, Jeffrey A., Carlos A. Végh, and Guillermo Vuletin. "Fiscal Policy in Developing Countries: Escape from Procyclusality." VoxEU, June 23, 2011.
5. Tobias Adrian, Vitor Gaspar "How Fiscal Restraint Can Help Fight Inflation", IMF blog, 21 june, 2022.
6. A.Ahmad, R.McManus, F.G.Ozkan, (2021) "Fiscal space and the procyclicality of fiscal policy: The case for making hay while the sun shines". Economic Inquiry, 59(4), 1687–1701.
7. Michael Gavin, Roberto Perotti, "Fiscal Policy in Latin America", MIT Press, January 1997, p. 11 – 72.
8. Alesina, Alberto, Guido Tabellini, and Filipe R. Campante. "Why Is Fiscal Policy Often Procylical?" Journal of the European Economic Association 6, no. 5 (2008): 1006–36. <http://www.jstor.org/stable/40283091>.
9. Alberto Alesina and Guido Tabellini, "Why is fiscal policy often procylical?", Harvard University and IGIER Bocconi, February 2006, 41 pages.
10. Mark Hallerberg, Rolf Strauch "On the Cyclicalities of Public Finances in Europe", Empirica 29: 183–207p, 2002.
11. Philipp Heimberger, "The cyclical behaviour of fiscal policy: A meta-analysis". Vienna Institute for International Economic Studies, Austria. Economic Modelling 123 (2023) 106259.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi – www.stat.uz.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi – www.stat.uz.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.